



KORXONA IQTISODIY SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH

Xakimov Tulkin

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

ORCID: 0000-0001-7280-9981

akash7509@rambler.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonaning iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish va baholash usullari, uning samaradorligini oshirish omillari o'rganilgan. Iqtisodiy salohiyatning asosiy ko'rsatkichlari, korxona faoliyatining raqobatbardoshligini ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlar, samaradorlik mezonlari asosida baholash metodlari keltirilgan va ularning amaliy qo'llanilishi haqida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: korxona iqtisodiy salohiyati, tahlil qilish, baholash, moliyaviy ko'rsatkichlar, raqobatbardoshlik, samaradorlik, biznes tahlili, moliyaviy barqarorlik, investitsiya, korxona rivoji.

АНАЛИЗ И ОЦЕНКА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЯ

Хакимов Тулкин

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Аннотация. В статье рассматриваются методы анализа и оценки экономического потенциала предприятия, факторы повышения его эффективности. Анализируются основные показатели экономического потенциала и их значение для обеспечения конкурентоспособности предприятия. Представлены методы оценки на основе финансовых и экономических показателей, а также их практическое применение.

Ключевые слова: экономический потенциал предприятия, анализ, оценка, финансовые показатели, конкурентоспособность, эффективность, бизнес-анализ, финансовая устойчивость, инвестиции, развитие предприятия.

ANALYSIS AND ASSESSMENT OF THE ECONOMIC POTENTIAL OF THE ENTERPRISE

Khakimov Tulkin

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Abstract. This article examines the methods of analyzing and evaluating the economic potential of an enterprise and the factors that enhance its efficiency. The main indicators of economic potential and their importance in ensuring the competitiveness of the enterprise are analyzed. The article presents evaluation methods based on financial and economic indicators and discusses their practical application.

Keywords: economic potential of enterprise, analysis, evaluation, financial indicators, competitiveness, efficiency, business analysis, financial stability, investment, enterprise development.

Kirish.

Hozirgi zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonaning iqtisodiy salohiyati uning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy salohiyat – bu korxonaning moliyaviy va ishlab chiqarish imkoniyatlari, shuningdek bozordagi o'rni asosida uning kelajakdagi o'sish salohiyatini bayon qiladigan ko'rsatkichdir. Shuning uchun iqtisodiy salohiyatni to'g'ri tahlil qilish va baholash korxonaning strategik rejalarini tuzishda va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy globalashuv va keskin raqobat sharoitida korxonalar o'z resurslarini samarali boshqarishga, yangi imkoniyatlar izlashga va ustunliklarga erishishga majburdir. Shuning uchun iqtisodiy salohiyatni tahlil qilishning zamonaviy usullari va ularni amalga oshirish mexanizmlari haqidagi tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada korxonaning iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish va baholash usullari, moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlar asosidagi baholash mexanizmlari tahlil qilinadi hamda ularning korxonaning rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarish va baholash masalalari ko'plab milliy va xalqaro olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xalqaro tajribada bu yo'nalishda innovatsion boshqaruv usullari, raqamlashtirish va resurslarni samarali taqsimlash kabi jihatlar asosiy e'tiborga olinadi. Xususan, Rossiyalik mutaxassis S. Ekimov "qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini chuqur tahlil qilgan va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish yo'llarini taklif qilgan" (Ekimov, 2021). Yana bir rossiyalik mutaxassis Zinina "qishloq xo'jaligi korxonalarining tadbirkorlik salohiyatini oshirish orqali iqtisodiy salohiyatni mustahkamlash yo'llarini o'rgangan" (Zinina, 2020). Ukrainalik mutaxassis V. Antohenkova "qishloq xo'jaligi korxonalarining resurs salohiyatidan samarali foydalanish orqali mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq hududlarini rivojlantirish" masalalariga o'z tadqiqotlari to'xtalib o'tgan (Antoshchenkova, 2020). Polshalik mutaxassis Małgorzata Matyja "qishloq xo'jaligi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning resurs bazasi va salohiyatini oshirish masalalarini" o'z ilmiy ishlarida keng yoritgan (Matyja, 2016). Belorussiyalik iqtisodchi Samaxavets "qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy salohiyatini yaxshilash yo'llarini" o'z tadqiqotlarida ochiqlab o'tgan (Samaxavets, 2014). Yana bir rossiyalik mutaxassis V. Podkopaev o'z tadqiqotlarida asosan "qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish masalalariga to'xtalib o'tgan" (Podkopayev, 2016). O'zbekiston sharoitida esa, qishloq xo'jaligi sohasining rivojlanishi va korxonalar samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar so'nggi yillarda faollashdi. I. Umarov o'z tadqiqotlarida "qishloq xo'jaligi korxonalarining boshqaruv salohiyatini yaxshilash masalalariga" to'xtalib o'tgan (Umarov, 2018). Z. Shoniyozova "qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy salohiyatini oshirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati" haqida o'z izlanishlarida xulosalar berib o'tgan (Shoniyozova, 2023). N. Nosirova "qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatuvchi kichik biznes korxonalarining eksport salohiyatini oshirish masalalariga" o'z ilmiy asarlarida to'xtalib o'tgan (Nosirova, 2021). Yuqorida o'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy salohiyatini o'rganishga qaratilgan ishlarda yaxlit baholash va tahlil qilish tizimi shakllantirilmagan, shuningdek, iqtisodiy salohiyatni baholash metodikalari bo'yicha mamlakatimizda hali yetarlicha tizimli yondashuvlar ishlab chiqilmaganligi haqida fikrlar mavjud. Shu bois, iqtisodiy salohiyatni aniq baholash va uni boshqarish uchun zamonaviy uslubiy asoslar yaratish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda korxonaning iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish va baholashda bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Tizimli tahlil usuli asosida korxonaning iqtisodiy salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omillar aniqlab olindi. Taqqoslash usuli orqali turli korxonalar faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari solishtirildi va baholashning nisbiy natijalari tahlil qilindi. Statistik tahlil, moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili, grafik va jadval usullari yordamida korxonaning moliyaviy barqarorligi, rentabelligi, aktivlardan foydalanish darajasi va boshqa muhim parametrlar baholandi. Tadqiqotda shuningdek, mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy statistik manbalar asos sifatida qo'llanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Iqtisodiy tahlil samaradorligini ta'minlash uni to'g'ri va tizimli tashkil etmasdan mumkin emas. "Iqtisodiy tahlilni tashkil etish, avvalo uning maqsad va vazifalarini aniqlash, korxona bo'linmalari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash, ichki va tashqi tahlilni amalga oshirish jarayonlari, uslubiy yondashuvlar va vositalarni belgilash, shuningdek korxonaning samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish tartibini belgilashni anglatadi" (Kocharyan, 2016).

Iqtisodiy tahlilni samarali tashkil etish korxona faoliyatini tahlil qilish jarayonini markazlashtirish, aniq vazifalarga yo'naltirish va strategik qarorlarni asoslashda muhim ahamiyatga egadir. Bu jarayon korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan "ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga zamin yaratadi" (Nurmanov, 2024).

Iqtisodiy tahlil uslubiyoti — bu xo'jalik jarayonlari va ularning natijalarini o'rganishga qaratilgan maxsus usul va uslublar majmuasini anglatadi. Mazkur uslubiyot tahlilning mazmunan tizimli va mantiqan asoslangan bo'lishiga xizmat qiladi. "Iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda quyidagi texnologik bosqichlar ajratib ko'rsatiladi:

1) Tahlil obyekti, maqsad va vazifalarini aniqlash, tahlil ishlari rejasini tuzish – tahlilni rejalashtirish, strategik yo'nalishni belgilash va vazifalarni aniq taqsimlash imkonini beradi.

2) Tahlil obyektni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish – iqtisodiy jarayonlarni baholashda aniq, miqdoriy ifodalangan va tarmoq talablariga mos keluvchi indikatorlar tanlanadi.

3) Zarur ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun tayyorlash – ma'lumotlarni ishonchli manbalardan yig'ish, ularni chuqur tekshirish va tahlilga mos holga keltirishni o'z ichiga oladi.

4) Haqiqiy xo'jalik faoliyati natijalarini reja ko'rsatkichlari, avvalgi davrlar ma'lumotlari, sohaviy o'rtacha ko'rsatkichlar va raqobatchi korxonalar natijalari bilan solishtirma tahlil qilish – dinamik va taqqoslama tahlil usullari orqali faoliyat samaradorligi baholanadi.

5) Omilli tahlil va ularning korxona faoliyati natijalariga ta'sirini aniqlash – omillarnig muayyan ko'rsatkichlarga ta'sir darajasi ilmiy asosda baholanadi.

6) Ishlatilmayotgan va istiqbolli zaxiralarni aniqlash – ishlab chiqarishni optimallashtirish, qo'shimcha resurslarni jalb etish imkoniyatlarini belgilash.

Xo'jalik faoliyati natijalarini omillar ta'siri va zaxiralar asosida baholash, ulardan foydalanish bo'yicha taklif va chora-tadbirlarni ishlab chiqish – tahlil natijalari asosida samaradorlikni oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar shakllantiriladi" (Skobara, 2014).

Tadqiqotda korxonaning iqtisodiy salohiyatini har tomonlama tahlil qilish va baholashda zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Xususan, iqtisodiy ko'rsatkichlarni solishtirish, guruhlash va grafik usullar orqali mantiqiy tahlil amalga oshirildi. Bu usullar yordamida korxonaning faoliyati bo'yicha dinamik o'zgarishlar, tarkibiy bog'liqliklar va asosiy yo'nalishlar aniqlandi.

Korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda determinantli (omilli) tahlil usullari — zanjirli almashtirish, mutloq farqlar va indeksli baholash metodlaridan foydalanildi.

Bu esa iqtisodiy natijalarning shakllanishiga sabab bo'lgan asosiy omillarni miqdoriy jihatdan tahlil qilish imkonini berdi.

Shuningdek, statistik ma'lumotlarni chuqur o'rganish uchun korrelyatsiya va regressiya tahlili, trend va dispersiya tahlillari qo'llanilib, uzoq muddatli o'zgarishlar tahlil qilindi. Modellash tirishga asoslangan iqtisodiy-matematik usullar (chiziqli dasturlash, tarmoq modellar, imitatsion modellash tirish) korxona resurslaridan optimal foydalanish imkonini baholashda muhim vosita bo'ldi.

Tadqiqotda boshqaruv tahlili vositalaridan ham keng foydalanildi. Jumladan, SWOT tahlil orqali korxonaning ichki kuchli va zaif tomonlari, tashqi imkoniyatlar va tahdidlar aniqlandi; PEST tahlil yordamida esa siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik muhit o'rganildi. GAP tahlil orqali rejalashtirilgan va amalda erishilgan natijalar o'rtasidagi tafovut aniqlandi.

Mazkur usullarning qo'llanilishi korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini shakllantirish va samaradorlikni baholashda ishonchli va tahliliy asos yaratdi.

Ishlab chiqarish salohiyatini to'g'ri va mos ravishda baholash korxonaning kundalik faoliyatini hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini samarali rejalashtirish va amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, "korxonaning joriy to'lov qobiliyatini ta'minlash", bozorda "raqobatbardoshligini mustahkamlash" hamda "tarmoqdagi o'rnini barqarorlashtirish" imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini tadqiq etishda sohaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda maxsus uslubiy yondashuvlardan foydalanish zarur.

Bu esa sohaviy tahlil ko'rsatkichlarini hisoblashni nazarda tutadi. "Ishlab chiqarish salohiyati, jumladan, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali va maqsadga muvofiq foydalanish mahsulot sifatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, mazkur resurslardan oqilona foydalanish korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlash, bozordagi mavqeini mustahkamlash hamda iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim omil hisoblanadi" (Pardayevich, 2021).

1-jadval

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan asosiy usul va vositalar

No	Usul/vosita nomi	Qisqacha tavsifi va qo'llanishi
1	Mantiqiy usullar	Taqqoslash, guruhlash, grafik usullar yordamida iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirish va vizual tahlil qilish.
2	Omili (determinant) tahlil	Zanjarli almashtirish, indekslar va farq usullari orqali omillar ta'sirini aniqlash.
3	Iqtisodiy-statistik usullar	Korrelyatsiya, regressiya, dispersiya va ekstrapolyatsiya orqali statistik bog'liqliklarni o'rganish.
4	Iqtisodiy-matematik usullar	Chiziqli va chiziqsiz dasturlash, modellash, optimallashtirish orqali aniq qarorlar ishlab chiqish.
5	Boshqaruv tahlili vositalari	SWOT, PEST, GAP tahlillari orqali strategik boshqaruvga asos yaratish va farqlarni aniqlash.

Iqtisodiy tahlilni, jumladan, korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini aniq va samarali baholashni tashkil etishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim masalalardan biri — ushbu jarayonni amalga oshirish uchun "mas'ul bo'linmani" belgilashdir (Nasibov, 2008).

Amaliy faoliyatda bunday vazifalar odatda korxonaning iqtisodiy xizmati zimmasiga yuklanadi. Bugungi tez o'zgaruvchan bozor muhiti sharoitida mazkur xizmat xodimlari o'z korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlarini muntazam tahlil qilib borishlari talab etiladi.

Bunday tizimli tahlil:

- korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlaridan amalda qay darajada foydalanilayotgani haqida doimiy ma'lumotlar bazasini yaratishga;
- korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi va ishlab chiqarish-moliyaviy

rejalarini ilmiy asosda shakllantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligi korxonalari ishlab chiqarish salohiyatini to'g'ri baholash va undan samarali foydalanish uchun, eng avvalo, ushbu salohiyatning iqtisodiy mohiyatini chuqur o'rganish zarur. Buning uchun sohaviy xususiyatlar, ishlab chiqarish resurslari tarkibi va ularning qayta tiklanish imkoniyatlari hisobga olingan holda maxsus tahlil usullarini ishlab chiqish talab etiladi.

M.Abdujabborovanning ta'kidlashicha, "ishlab chiqarish salohiyati — bu o'zaro bog'liq ishlab chiqarish resurslaridan eng samarali tarzda foydalanish orqali maksimal darajada ishlab chiqarish natijasini qo'lga kiritishga yo'naltirilgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir" (Abdujabborova, 2023).

Ushbu tushuncha faqat resurslar yig'indisi emas, balki ularning o'zaro ta'sirchanligi, boshqaruv mexanizmlari va natijaviylik darajasini ham o'z ichiga oladi. Salohiyatning takomillashuvi — bu resurslarni to'g'ri taqsimlash, ularning imkoniyatlarini to'liq ishga solish va texnologik yangilanish orqali amalga oshiriladi.

Korxonalar ishlab chiqarish salohiyatini baholash uchun turli uslubiy yondashuvlar mavjud. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. **Salohiyat unsurlarini pul bilan baholash usuli** – ishlab chiqarish salohiyatini tashkil etuvchi har bir resursning qiymat ifodasini aniqlash.

2. **Indeks usuli**– turli ko'rsatkichlar o'zgarishini solishtirma tahlil qilish orqali salohiyat dinamikasini baholash.

3. **Resurs-regressiya usuli** – resurslar bilan natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni statistik (regressiya) modeli orqali aniqlash.

4. **Indikativ usul** – korxonaning strategik maqsadlariga mos indikatorlar asosida baholash va nazorat.

5. **Resurslarni ustuvor baholash usuli** – eng muhim va ta'sirchan resurs turlariga ustuvorlik berish orqali salohiyat darajasini baholash.

Bu usullardan foydalanish korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini to'liq, tizimli va dinamik jihatdan baholash imkonini beradi.

Iqtisodchi M. Tojiboyeva korxonalar ishlab chiqarish salohiyatini aniq va samarali baholash maqsadida quyidagi ko'rsatkichlar tizimini taklif etadi:

- **"Potentsial yillik ishlab chiqarish quvvati (hisob birliklarda)** – korxonaning mavjud texnika va texnologiyalaridan to'liq foydalangan holda erishishi mumkin bo'lgan maksimal ishlab chiqarish hajmini ko'rsatadi.

- **Potentsial yillik yalpi ishlab chiqarish hajmi (qiymatda)** – ish, xizmat va mahsulotlar umumiy hajmining qiymat ifodasidagi bahosi. Bu korxonaning bozor salohiyatini ifoda etadi.

- **Potentsial qo'shilgan qiymat yoki shartli sof mahsulot (qiymatda)** – joriy ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan yangi qiymatni aks ettiradi. Bu ko'rsatkich ichki samaradorlikni baholashda muhim ahamiyatga ega.

- **Potentsial sof yillik daromad** – ishlab chiqarish natijasida yaratilgan sof iqtisodiy qiymat bo'lib, bu toza mahsulot hajmini ifodalaydi.

- **Potentsial balans foydasi (turli narx strategiyalari bo'yicha)** – korxonada amalga oshirilayotgan faoliyatdan turli bozor sharoitida olinadigan umumiy foydani baholaydi. Bu strategik rejalashtirish uchun asosiy hisoblanadi.

- **Soliqlardan keyingi ehtimoliy sof foyda** – davlatga barcha majburiy to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng korxonada qoladigan sof foydani ko'rsatadi" (Tojiboyeva, 2021).

Korxona ishlab chiqarish salohiyatini tahlil qilishda bir qator asosiy yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishlar korxonaning iqtisodiy samaradorligini har tomonlama baholash, mavjud resurslardan foydalanish darajasini aniqlash va istiqbolli rivojlanish nuqtalarini belgilash imkonini beradi.

Birinchidan, moddiy-texnikaviy resurslar tahlili doirasida asosiy ishlab chiqarish fondlarining tuzilishi va joriy holati, mavjud uskunalar va texnologiyalarning yangilanish darajasi, shuningdek fondlarning qaytimi va amortizatsiya darajasi o'rganiladi. Bu tahlil ishlab chiqarish vositalarining samaradorligini baholashda asosiy mezon hisoblanadi.

Ikkinchidan, mehnat salohiyatini tahlil qilish orqali xodimlar soni, ularning kasbiy malaka darajasi, mehnat unumdorligi hamda yollanma mehnatdan foydalanish darajasi aniqlanadi. Mehnat resurslaridan oqilona foydalanish ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va samaradorligini ta'minlovchi omillardan biridir.

Uchinchidan, agrar yo'nalishdagi korxonalar uchun yer va tabiiy resurslardan foydalanish tahlili alohida ahamiyatga ega. Bu yer maydonlarining samarali foydalanilishi, yer unumdorligi, ekologik holat va melioratsiya darajasini o'z ichiga oladi.

To'rtinchidan, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish tahlilida korxonaning to'liq ishlab chiqarish imkoniyati bilan amaldagi ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi farq aniqlanadi. Shuningdek, quvvatni ishlatish koeffitsiyenti va mavjud quvvat zaxiralari ham hisobga olinadi.

Beshinchidan, iqtisodiy natijadorlik tahlili doirasida korxonaning yalpi mahsulot hajmi, sof mahsulot va qo'shilgan qiymati, umumiy foyda, rentabellik ko'rsatkichlari, balans foydasi hamda soliqlardan so'ng qoladigan sof daromad tahlil qilinadi. Bu ko'rsatkichlar korxona moliyaviy holatini baholashda muhim rol o'ynaydi.

Oldinchidan, innovatsion salohiyat tahlilida korxonada yangi texnologiyalarni joriy etish darajasi, amalga oshirilgan ilmiy-texnik ishlanmalar soni va innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan investitsiyalar miqdori tahlil qilinadi. Bu esa raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqarish salohiyatini iqtisodiy tahlil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad — uning holati, tuzilishi va dinamikasini hamda uni tashkil etuvchi elementlarni o'rganish, shuningdek, salohiyatni amalga oshirish darajasiga ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy omillarni aniqlash, mavjud muammoli nuqtalar ("tor joylar") topish va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi tahliliy vazifalarni hal etish taklif qilinadi:

1. Moddiy, mehnat va kapital resurslarining miqdori, tuzilishi va dinamikasini aniqlash;
2. Asosiy ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan foydalanishni normalashtirish tizimining sifatiga baho berish;
3. Alohida resurs turlari yoki texnologik jarayonlar bo'yicha "tor joylar"ni aniqlash va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiya etilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
4. Ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni rejalashtirish jarayonining sifatiga, rejalashtirilgan ko'rsatkichlarning asoslanganligi va ularning erishilgan darajaga mosligiga baho berish;
5. Ishlab chiqarish salohiyatining samarasiz elementlarini aniqlash va ulardan kelgusida foydalanish masalalari bo'yicha takliflar tayyorlash;
6. Ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi darajasiga erishilgan holatni tahlil qilish hamda asosiy omillarning ishlab chiqarish salohiyati ko'rsatkichlariga ta'sirini baholash;
7. Ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish zaxiralarini aniqlash" (Skrynkovskyy, 2019).

V.P. Bocharov va A.A. Kruglovning ta'kidlashicha, "ishlab chiqarish salohiyatini baholash va tahlil qilish uslubiyoti quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichda xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishlab chiqarish salohiyati holati aniqlanadi. Mazkur bosqichda salohiyat darajasini turkumlashtirish orqali uning holatiga aniq baho berish imkoniyati yaratiladi. Ushbu darajalar quyidagicha tavsiflanadi:

• **Yuqori daraja** – ishlab chiqarish salohiyatining barcha funktsional tarkibiy qismlari (mehnat, moddiy, moliyaviy, texnologiyaviy) o'rtasida muvozanat ta'minlangan bo'lib, korxona

samarali faoliyat yuritmoqda. Tashkilot strategik maqsadlarini to'liq amalga oshirish salohiyatiga ega.

- **O'rta daraja** – ayrim kamchiliklar mavjud bo'lsa-da, ularni bartaraf etish mumkin va ular korxonaning barqaror ishlash va rivojlanish salohiyatiga jiddiy tahdid solmaydi. Bu darajaga ega korxonalar odatda faol ratsionallashtirish yoki qayta tuzish choralari muhtoj.

- **Past daraja** – ishlab chiqarish salohiyatining barcha asosiy parametrlarida muammolar mavjud bo'lib, ular tizimli va davriy xususiyat kasb etgan. Bu holat korxonaning inqirozga yuz tutishiga olib kelishi mumkin. Mazkur darajadagi korxonalar antikrizis boshqaruv va restrukturizatsiyani talab qiladi.

2. Tahlil (hisob-kitob va baholash) bosqichi. Ushbu bosqichda ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasini aniqlash uchun integral va xususiy ko'rsatkichlar ishlab chiqiladi. Tahlil quyidagi asosiy tarkibiy elementlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- **Asosiy fondlar (kapital aktivlar):** ularning iste'mol darajasi, qayta jihozlash, modernizatsiya va innovatsion loyihalarda ishtirok darajasi;

- **Aylanma fondlar:** xomashyo, materiallar va tayyor mahsulotlar zaxiralari bilan bog'liq aylanish tezligi, omborlardan foydalanish samaradorligi;

- **Moliyaviy resurslar:** mablag'lar tuzilmasi, likvidlik darajasi, moliyaviy barqarorlik va investitsiyaviy faoliyat;

- **Mehnat resurslari:** ishchi kuchi malakasi, mehnat unumdorligi, xodimlar aylanmasi va mehnat muhitining sifat ko'rsatkichlari.

Bu bosqichda foydalanish samaradorligini aniqlovchi muhim ko'rsatkichlar – ishlab chiqarish qaytarimi, resurs tejamkorligi, qiymat yaratish koeffitsiyenti, va solishtirma xarajatlar ko'rsatkichlaridan iborat bo'ladi.

3. Yakuniy bosqich. Bu bosqichda oldingi tahlil natijalariga asoslanib, har bir ko'rsatkich bo'yicha “**chegaraviy** qiymatlar” tahlil qilinadi va ular salohiyat darajalari bilan solishtiriladi. Bu orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- salohiyatda mavjud “tor joylar”ni aniqlash;
- zaxiralarni safarbar etish imkoniyatlarini baholash;
- samarasiz resurslardan qayta foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish;
- salohiyatni mustahkamlash bo'yicha strategik va taktik tavsiyalar tayyorlash”

(Bocharov, 2010).

Qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarish salohiyatining eng muhim va o'ziga xos tarkibiy qismi “**biologik salohiyat**” hisoblanadi. U — qishloq xo'jaligi ekinlari navlari, hayvon va parrandalar zotlarining majmuasi sifatida qaraladi. Ya'ni, biologik salohiyat deganda, xo'jalikda etishtirilayotgan agrobiologik resurslar miqdori va ularning genetik, agronomik, reproduktiv imkoniyatlari tushuniladi”.

Iqtisodiy va agroteknika jarayonlari samarali boshqarishda biologik salohiyatning holati to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lish, shuningdek uni **qayta tiklash, rivojlantirish** va **samarali foydalanish** strategiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu — korxona iqtisodiy salohiyatini oqilona boshqarish, uning barqaror rivojlanishini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omillardan biridir.


Shuningdek, “biologik salohiyatga baho berishda quyidagi ilmiy va amaliyotga asoslangan yondashuvlarni inobatga olish zarur:

- ekin turlari va hayvon zotlarining agroiklim sharoitlariga mosligi;
- genetik salohiyatdan foydalanish darajasi;
- reproduktiv xususiyatlar (ya'ni, ko'payish, o'sish, mahsuldorlik ko'rsatkichlari);
- kasalliklarga chidamlilik va biologik barqarorlik;
- biologik resurslardan foydalanishda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish darajasi”.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligi korxonalarida biologik salohiyat nafaqat ishlab chiqarish samaradorligining omili, balki strategik resurs sifatida ham xizmat qiladi. Uning ilmiy

asoslangan holda baholanishi va boshqarilishi, korxonaning uzoq muddatli barqaror faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Korxonaning moliyaviy salohiyatining asosiy tarkibiy qismlari sifatida investitsiyaviy jozibadorlik va kredit qobiliyati namoyon bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Korxona moliyaviy salohiyatini tashkil etuvchilar

Moliyaviy salohiyat tarkibiga moliyaviy resurslar — ya'ni korxonalar ixtiyorida bo'lgan va quyidagi maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari va tushumlar kiradi:

- davlat, kredit tizimi, yetkazib beruvchilar, sug'urta organlari, boshqa korxonalar va jismoniy shaxslar, shuningdek, korxona xodimlari oldidagi moliyaviy majburiyatlarni bajarish uchun;

- xo'jalik faoliyatini rivojlantirish, ishlab chiqarishga oid bo'lmagan obyektlarga sarmoya kiritish, iste'mol, jamg'arma, maxsus rezerv fondlarini shakllantirish va boshqa maqsadlardagi xarajatlarni amalga oshirish uchun.

Shu tariqa, moliyaviy salohiyatga berilgan turli xil ta'riflar ushbu tushunchaning korxonalar faoliyatidagi ko'p qirrali va kompleks xususiyatini ta'kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "moliyaviy salohiyatni baholash jarayonida birinchi navbatda korxonaning moliyaviy holati kompleks tarzda tahlil qilinadi" (Timofeyeva, 2009). Bu tahlil asosan kapitalning qiymati, uning tarkibi va strukturasi ko'rsatkichlari dinamikasini o'rganishga, shuningdek "moliyaviy barqarorlik va samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar — moliyaviy koeffitsiyentlar tizimiga" tayanadi. Moliyaviy salohiyatni baholashda kapitaldan samarali foydalanish darajasi, jumladan umumiy kapital hamda uning alohida tarkibiy qismlari bo'yicha baholar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, moliyaviy salohiyatni to'liq va ishonchli baholash uchun korxonaning moliyaviy munosabatlar tizimi va ushbu tizim doirasida amalga oshirilayotgan qarz-kredit shartnomalari, xususan, tuzilgan moliyaviy kontraktlarning natijadorligi ham tahlil etiladi. Bundan tashqari, dividend siyosatining asoslanishi, soliq yuklamasi bilan bog'liq strategiyalar, shuningdek, investitsiya siyosatining mantiqiy va maqsadga muvofiqligi moliyaviy salohiyat bahosida muhim rol o'ynaydi. "Oqilona tashkil etilgan moliyaviy boshqaruv tizimi esa korxonaning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash va uning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi" (Abdumurotov, 2021). Umumiy qilib aytganda, moliyaviy salohiyatni tahlil qilishda integratsiyalangan yondashuv qo'llanilib, u korxonaning mablag'lashtirish imkoniyatlari, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi va moliyaviy xavflarni boshqarish qobiliyatini kompleks ravishda baholashni nazarda tutadi.

Xulosa va takliflar.

Hozirgi bosqichdagi globallashuv va raqobatning kuchayishi sharoitida bozor iqtisodiyotining rivojlanishi qishloq xo'jaligi korxonalarining bozorda mustahkam pozitsiya egallashini ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuvlarni talab etmoqda. Bugungi kunda raqobatbardoshlikni faqat an'anaviy ishlab chiqarish modellari asosida ta'minlash imkonsiz bo'lib bormoqda. Shuning uchun qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatida keng ko'lamli "diversifikatsiya strategiyalarini joriy etish, ya'ni faqat dehqonchilik yoki chorvachilik bilan cheklanib qolmasdan, qayta ishlash, logistika, saqlash va marketing singari bog'liq sohalarni qamrab olish" muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, raqobatbardoshlikni ta'minlashda "innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ya'ni raqamli agrotehnologiyalar, aqlli fermerlik tizimlari (smart farming), avtomatlashtirilgan monitoring va nazorat vositalaridan foydalanish" — ishlab chiqarish samaradorligini keskin oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, "agrosanoat kompleksidagi qayta ishlash sektorini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish" masalalariga e'tibor qaratish zarur.

Shu asosda, qishloq xo'jaligi korxonalarining bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ularning iqtisodiy, texnologik va tashkiliy salohiyatini bir vaqtning o'zida takomillashtirish, institutsional islohotlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, shuningdek, agroinfrazuzilmani rivojlantirish strategiyalari ham muhim o'rin tutadi. Bunday kompleks yondashuvlar samarasida qishloq xo'jaligi korxonalari nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro agrobozorlarda ham raqobatbardosh mahsulot yetkazib beruvchi barqaror sub'ektlarga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Antoshchenkova V. (2020) *Main elements of the resource potential of agricultural enterprises as the basis of economic and food security* // *Ekonomichnyy analiz*. – T. 30. – №. 3. – C. 291-298.

Matyja M. (2016) *Resources based factors of competitiveness of agricultural enterprises* // *Management*. – T. 20. – №. 1. – C. 368.

Samakhavets M. P. (2024) *Financial Potential of Agricultural Business of the Republic of Belarus in Trade with the Russian Federation* // *Regionalnaya ekonomika. Yug Rossii*. – C. 103-114.

Skrynkovskyy R. et al. (2019) *Improvement of the system of indicators for the efficiency evaluation of the production capacity of industrial enterprises* // *Технологический аудит и резервы производства*. – T. 2. – №. 4 (46). – C. 49-51.

Viacheslavna Z. O., Anatolievna O. J. (2020) *Business activity of agricultural enterprises. Problems and solutions* // *Азимут научных исследований: экономика и управление*. – T. 9. – №. 4 (33). – C. 151-153.

Yekimov S. et al. (2021) *Building the potential of an agricultural enterprise* // *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*. – IOP Publishing, – T. 677. – №. 2. – C. 022075.

Абдувохидов, Акмал, et al. (2022) "Қишлоқ хўжалигида иқтисодий ўсиш сифатини аниқлаш ва унинг қўрсаткичлари таҳлили." *Iqtisodiyot va ta'lim* 23.4: 16-31.

Абдужаборова М. (2023) *Хўжалик юритувчи субъектларда молиявий барқарорлик таҳлилинини ташкил этиш* // *Iqtisodiyot va ta'lim*. – T. 24. – №. 5. – C. 197-200.

Абдумуротов Ш. (2021) *Корхоналарни ривожлантиришда корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлилининг ўрни* // *Экономика и инновационные технологии*. – №. 3. – C. 42-48.

Бочаров В. П., Круглов А. А. (2010) *Организационные аспекты экономического анализа производственного потенциала* // *Современная экономика: проблемы и решения*. – T. 10. – C. 73-82.

Жалилов Б. (2019) Корхоналар иқтисодий фаолиятини самарали ташкил этишининг муаммолари ва тизимли таҳлили //Экономика и инновационные технологии. – №. 3. – С. 183-191.

Кочарян Я.М. (2016) Методическое обеспечение экономического анализа в агрохолдингах //Кластерные инициативы в формировании прогрессивной структуры национальной экономики. – С. 140-143.

Миркомбаров М. (2022) Саноат корхоналарининг ишлаб чиқариш салоҳиятидан самарали фойдаланишининг асосий жиҳатлари: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a44 //Iqtisodiyot va ta'lim. – Т. 23. – №. 3. – С. 285-290.

Насибов З. Н. (2008) Анализ производственного потенциала АПК //Проблемы экономики и юридической практики. – №. 4. – С. 272-274.

Носирова Н. (2021) Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ошириш //Iqtisodiyot va ta'lim. – №. 5. – С. 309-315.

Нурманов К. (2024) Международный опыт ведения стратегического управленческого учета и возможности его применения в рисовой отрасли //Экономическое развитие и анализ. – Т. 2. – №. 10. – С. 398-405.

Пардаевич Қ. Б. (2023) Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. *Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises* //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – Т. 13. – №. 7. – С. 42-49.

Пласкова Н. С. (2018) Развитие методологии экономического анализа в цифровой экономике //Учет. Анализ. Аудит. – Т. 5. – №. 2. – С. 36-43.

Скобара В. В., Подкопаев В. В. (2014) Анализ производственного потенциала предприятий //Ученые записки Российской академии предпринимательства. – №. 41. – С. 279-289.

Тожибоева Ш., Махкамбоев К., Ташпулатова Г. (2021) Иқтисодий салоҳиятнинг айланма маблағлар билан боғлиқ кўрсаткичлари таҳлили //Iqtisodiyot va ta'lim. – №. 5. – С. 205-210.

Умаров И. Ю. (2018) Ўзбекистон Республикасида озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш салоҳияти //Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. – Т. 6. – С. 1-8.

Шаниязова З. (2023) Қишлоқ хўжалиги корхоналарини давлат томонидан молиялаштиришда замонавий усулларни қўллаш методологияси //Страховой рынок Узбекистана. – Т. 1. – №. 3. – С. 23-25.